

AHOLI PUNKTLARI, JAMOAT MARKAZLARINI QISHLOQ HAMDA SHAHAR TIPIDA LOYIHALASH

Xamidova V.A

TAQU, assistent

Toshpulatova M.

TAQU, Arx loy 3.21 talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439932>

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi punktlari jamoat markazlarini qishloq hamda shahar tipida loyihalashning asosiy tamoyillari aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: aholi punkti, zamonaviy tip, ko`p tarmoqli, urbanizatsiya, rekreatsiya,

СЕЛЬСКОЕ И ГОРОДСКОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ, ОБЩЕСТВЕННЫХ ЦЕНТРОВ

Аннотация. В данной статье отражены основные принципы проектирования общественных центров населенных пунктов сельского и городского типа.

Ключевые слова: поселок, современный тип, многопрофильный, урбанизация, рекреация.

RURAL AND URBAN DESIGN OF SETTLEMENTS, PUBLIC CENTERS

Abstract. This article reflects the main principles of designing community centers of settlements in rural and urban type.

Keywords: settlement, modern type, cluster network, urbanization, recreation

KIRISH

Tarixdan ma`lumki, aholi punkti – odamlar doimiy yashaydigan joy bo`lib, shahar yoki qishloq shaklida bo`lishi mumkin. Aholi punktlarida bir necha yuzdan to bir necha milliongacha aholi istiqomat qilishi mumkin.

Aholi punktlari ma`lum bir vaqt davomida migratsiya jarayonlari, tabiiy ofatlar, yerlarning o`zlashtirilishi, aholining ma`lum geografik hududga ko`chib o`tishlari va boshqa shu kabi omillar natijasida vujudga kelishi mumkin hamda tashkil topgan shu kabi aholi punktlarida insonlar normal hayot kechirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilishadi. Bu o`rinda ayniqsa davlatning ahamiyati bevosita muhim rol o`ynaydi. Bugungi rivojlanayotgan davrda esa nafaqat davlat, balki turli ijtimoiy qatlama vakillarining ham o`rni tobora kuchayib bormoqda.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shaharlashuv jarayonida davlat, ya`ni hukumat aholi ehtiyojlarini qondiradigan sharoitlar yaratish noma`lum uzoq vaqt talab qilishidan kelib chiqib, aynan O`zbekiston sharoitida aholining birlamchi ehtiyojlari qaysi infratuzilmaning jadallahuvini belgilashda o`ziga xos mexanizm bo`lib xizmat qilmoqda. Bunda tashabbusli budjet bo`yicha amalga oshirilayotgan loyihalarini misol qilishimiz mumkin va bu o`zining ijobjiy samarasini bermoqda va albatta bu jarayonlar ko`p tarmoqli aholi punktlari, jamoat markazlarini qishloq hamda shahar tipida loyihalashda ham o`z aksini topmoqda. Bu borada O`zbekiston qonunchiligidagi ham doimiy o`zgarishlar amalga oshirilib boriladi, xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 fevraldagagi 169-sod qaroriga ilova sifatida “Aholi punktlari qismlarining batafsil rejalshtirish loyihalarini ishlab chiqishni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni keltirishimiz mumkin. Unga ko`ra aholi va davlat o`rtasidagi aholi

punktalarini yaratishda **davlat-xususiy sheriklik** (keyingi o‘rinlarda DXSh deb ataladi) — xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat va xususiy sheriklarning muayyan muddatga yuridik rasmiylashtirilgan aholi punktlari qismlarining bat afsil rejala shirish loyihalarini ishlab chiqish sohasidagi o‘zaro samarali sherikligi ayniqsa taqsinga loyi q bo`lib, **davlat-xususiy sheriklik** to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligi va ulardan erkin foydalanish imkoniyatining mayjudligi, davlat yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar bundan mustasno bo`lgan holda diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, bitim tomonlarining teng huquqligi;

tomonlarning bitim majburiyatlarini vijdona bajarishi;

bitim tomonlari o‘rtasida xavf-xatar va majburiyatlarningadolatli taqsimlanishi;

davlat-xususiy sheriklik tomonlari o‘zaro munosabatlarining shartnomaviy asosi kabilarda yaqqol namoyon bo`ladi.

Qo‘sishma sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018 — 2022-yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta’minalash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa shu kabi normativ huquqiy-hujjatlarni ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra so`ngi yillarda respublikada turar joylar va ijtimoiy-maishiy obyektlar qurilishini rivojlantirish hamda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmalarini yangilash hisobga olingan holda aholi punktlarini shaharlar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy arxitektura qiyofasini shakllantiruvchi shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minalash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar tizimli asosda amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikaning 96 ta shahri va 87 ta shahar posyolkasi bosh rejalar bilan ta’minaldi, 550 ta qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig‘inlari hududlarni arxitektura-rejala shirish jihatidan tashkil etish loyihalariga ega.

Loyiha-qidiruv tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish hamda respublika mintaqalarida istiqbolli va iqtisodiy samarali investitsiya yechimlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etishda ularning faol ishtirok etishini ta’minalash maqsadida 26 ta yetakchi loyiha-qidiruv tashkiloti hamda “O‘zshaharsozlik LITI” DUKning 12 ta filiali tashkil etilgan.

Biroq, shaharlar va qishloq aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari bilan yetarli ta’minalmaganligi ularni rejali rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy va ishlab chiqarish yo‘nalishidagi obyektlarni oqilona joylashtirish, rivojlantirishning qisqa muddatli, o‘rtacha muddatli va uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omil bo`lib qolmoqda.

Ko‘p tarmoqli aholi punktlarini zamonaviy tipda loyihalashda, u qishloq yoki shahar tipida bo`ladimi birinchi navbatda bosh reja tuzilib unda joylashuv, tabiiy sharoitlar, aholi va oilalar sonini hisoblash, uy-joy turlari bo‘yicha zarur uy-joy fondini shakllantirish, madaniy va ijtimoiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan turar-joy binolari ro`yxatini tuzish, ko‘chalar tarmog‘i tizimini rivojlantirish kabi holatlarda aniq hisob kitoblarga tayanish lozim hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur aholi punktlarida sanoat zonalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish maydonlarini rejala shirish va rivojlantirish, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston sharoitida barcha aholi punktlari shahar va qishloq aholi punktlariga bo‘linganligini hisobga olgan holda qishloq zonalari kattaligi va aholi zichligi bilan ajralib turadi, ularning asosiy qismi qishloq xo‘jaligida band bo`lib, qishloq aholi punktlari qishloq xo‘jaligi

ishlab chiqarishining muhim bo'lganligi sababli, hududni oqilona ishlab chiqarish texnologiyasi ta'minlanadigan tarzda tashkil qilishdan tashqari mintaqaning tuproq unumdorligi va uning tiklanish funksiyalari inobatga olinishi, tuproqning qaysi xususiyatlarga mansubligi ham ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi.

Qishloq aholi punktlarining joylashish va hududiy tuzilishi va ularda istiqomat qiluvchi aholining qishloq xo`jaligining qaysi turi bilan shug`ullanishiga ham uzviy bog`liqdir, bunda ushbu zonalardagi yer osti suvlari, doimiy va mavsumiy yomg`irlar ham hisobga olinishi lozim. Bunda aholining zichligi bo'yicha alohida turlarga ajratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi: voha va tog' oldi vodiylardagi zikh joylashuv (tog'-vodiy joylashuvi); yaylov chorvachiligi hamda dehqonchilik rivojlangan hududlardagi joylashuv; asosan yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlardagi joylashuv va tog'li hududlardagi joylashuv.

Lekin bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning qishloq xo`jaligida keng qo`llanilayotganligi bu joylashuvning tarixiy mezoniga birmuncha o`z ta`sirini ko`rsatmoqda. Turli chorvachilikka asoslangan fermer xo`jaliklar, klasterlar shular jumlasidan. Lekin kelajakda agrar sohaning maksimal rivojlanishi natijasida qishloq aholi punktlarining joylashuv tendensiyasi bo`yicha ilgaridagi kabi ahamiyatli bo`lmasdan qolish ehtimoli ham yo`q emas ammo butkul ushbu tabiiy joylashish shartlilagini yo`qqa chiqarmaydi. O`zbekistonda qishloq joylarni barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan bo`lsada, ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslash, uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot doirasini kengaytirish va amaliy ahamiyatga molik takliflar ishlab chiqish lozim. Xorij olimlari tomonidan bayon etilgan qishloq joylarini barqaror rivojlanish konsepsiylari va uning asosiy tamoyilda turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lib, yagona bir tushuncha va kelishuv yo`qligini ko`rsatmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi yangicha qarashlar turli nazariya va ilmiy muktablar yo`nalishlarini o`zida aks ettirgan holda, hozirda dunyoda bo`layotgan murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilib, insoniyat sivilizatsiyasiga ta'sir ko`rsatayotgan turli omillarga baho berishdan iborat.

Tahlillar aholi punktlarida qurilish ishlarini olib borish va rekonstruksiya qilish, loyiha va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish davomida belgilangan tartib, qoida va me`yorlar qo`pol ravishda buzilayotgan holatlar mavjudligini ko`rsatmoqda. Joylarda O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi hamda davlat boshqaruvi organlari o`rtasida hududlarni rivojlantirishda shaharsozlik jarayonini boshqarish borasida vazifalar va vakolatlarning aniq chegaralari mavjud emasligi shaharlar hamda boshqa aholi punktlarini rejali rivojlantirish va kompleks qurish hamda izchil rivojlantirish borasida shoshilinch, ba`zida esa noto`g`ri loyihaviy-rejali qarorlar chiqarilishiga sabab bo`lmoqda. Zamonaviy loyihalashtirish usullarini, amaliy dasturiy mahsulotlarni, ilm-fan, arxitektura va dizayn yutuqlarini hayotga tatbiq etish, zamon talablariga javob beradigan, murakkab hamda yuqori kategoriyalı loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega istiqbolli yoshlarni jalb etish uchun yetarli qiziqishi bo`lmagan loyiha tashkilotlari faoliyatini qayta ko`rib chiqish talab etilmoqda.

Shahar tipidagi aholi punktlari haqida gap ketganda tarixiy bosqichlardan tortib bugungi rivojlanish jarayonlarini tilga olib o`tish joiz hisoblanadi va bu «Urbanizatsiya» atamasi bilan bevosita bog`liq bo`lib, bu atama lotin tilida shahar ma'nosini anglatib, mamlakat (mintaqa) aholisi tarkibidagi shahar aholisining salmog`i orqali o`lchanadi. Urbanizatsiya jarayonlarining asosiy natijalari quyidagilar bilan bog`liq:

- barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;

- aholi turmushining sifati yaxshilash va darajasini ko‘tarish;
- uy-joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob’yektlari qurilishini keng miqyosda amalga oshirish;
- yer uchastkalaridan samarali foydalanish;
- shaharlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kompleks rivojlantirish;
- industrial-innovatsion rivojlanishning ustuvor vazifalarini hal etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llash;
- katta, o‘rtalik shaharlar rivojlanishini maqbullashtirish;
- shahar aglomeratsiyalari orqali ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning samarali shakllarini tatbiq etish;
- shaharlarda sanoat zonalari, texnoparklar, innovatsiya markazlari tashkil etish.

Darhaqiqat, bugungi kunda shaharsozlik sohasiga oid asosiy masalalar va muhim muammolarni hal etish g‘oyat dolzarb vazifa ekani inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon hamda «O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror qabul qilindi. Xususan, qabul qilingan Farmon, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining arxitektura va shaharsozlik sohasida yagona davlat va ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan bo‘lib, uning faoliyatidagi asosiy vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Jumladan: shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirib va yangilab borish, loyihalash ishlari va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnologiyalar jalb qilinishini tashkil etish, bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kapital qurilishda davlat haridlarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish, arxitektura, loyihalash va qurilish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni ta’minlashdan iborat.

Shaharsozlik omillari jamoat binolarini shaharning rejali tuzilmasidagi joylashuvini belgilab beradilar. Shahar hududi funksional foydalanishiga qarab istiqomat, ishlab chiqarish va landshaft-rekreatsiya zonalariga bo‘linadi. Istiqomat hududi uy-joy fondini, jamoat bino va inshootlarini, shu jumladan ilmiy-tadqiqot institutlari va ularning komplekslarini, shuningdek sanitariya-himoya zonalarini tashkil etishni talab etmaydigan alohida kommunal va sanoat obyektlarini joylashtirish, shahar ichidagi qatnov yo‘llari, ko‘chalar, maydonlar, park va bog`lar, bulvar va umumiyl foydalanishdagi joylar uchun mo‘ljallanadi. Shahar va qishloq aholi punktlaridagi istiqomat hududlarining rejali tuzilmasini jamoat markazlari, turar-joy imoratlari, ko‘cha-yo‘l tarmog`i, umumiyl foydalanishdagi ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarning o‘zaro bog`lanishini va, shu bilan birga, umuman, aholi punktining maydoni va hududining tabiiy sharoitlariga bog`liq bo‘lgan rejali tuzilmasini inobatga olgan holda loyihalashtirish lozim. Shaharlarda o‘z tarkibida umumshahar markazi, rejorashtirilgan hududlar (zonalar) markazlari, turar-joy va sanoat zonalari, dam olish zonalari, kundalik ehtiyojlar uchun savdo-maishiy markazlari, shuningdek shahar yaqinida joylashtirilishi mumkin bo‘lgan ixtisoslashtirilgan (tibbiy, o‘quv, sport va boshqa) markazlar mavjud bo‘lgan jamoat markazlari tizimini shakllantirish lozim.

Jamoat markazlarining soni, tarkibi va joylashtirilishi shaharning kattaligi, uning

joylashuv tizimida tutgan o`rni va hududning funksional-rejali tashkil etilishini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Yirik va juda yirik shaharlar, shuningdek tuzilmasi qismlarga ajratilgan shaharlarning umumshahar jamoat markazi, odatda, shahar miqyosidagi kichik markazlar bilan to`ldiriladi. Kichik shaharlar va qishloq aholi punktlarida yagona jamoat markazi shakllantirilib, turar-joy imoratlari zonasida joylashtiriladigan kundalik foydalanishdagi ob“yektlari bilan to`ldiriladi.

Umumshahar markazida, uning o`lchamlari va rejalashtirilishiga bog`liq ravishda, umumshahar yadrosini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan jamoat hududlar (bosh ko`chalar, maydonlar, piyoda zonalari) tizimlarini tashkil etish lozim. Tarixiy shaharlarda umumshahar markazi yadrosini tarixiy imoratlar qurilgan hududda to`liq yoki qisman shakllantirishga qaror topgan tarixiy muhitni saqlab qolishni ta“minlash shartiga rioya qilinganida yo`l qo`yiladi. Turar-joy imoratlarini qurish va aholiga madaniy-maishiy tizimini shakllantirishning shaharsozlik konsepsiysi ishlab chiqilgan bo`lib, unga muvofiq har bir shaharsozlik tuzilmasi uchun muayyan xizmat ko`rsatish bosqichi mos kelishi kerak: shaharga – epizodik xizmat ko`rsatish, turar-joy tumaniga – davriy xizmat ko`rsatish, mikrotumanga – kundalik xizmat ko`rsatish.

Shaharlarning kengayishi jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo`lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo`lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma`naviy-axloqiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o`tkazadigan bosimining kuchayishi, suv ta`minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me`yordan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog`liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Demak, jahon urbanizatsiyasining zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko‘rinishdagi muammoli jihatlari bilan tavsiflanadi. Aynan shu kabi muammolar ayni hozirda Toshkent shahrida ham og`riqli savol bo`lib qolmoqda, chunki, qurilish ishlarining tartibsiz va juda keng ko`lamda amalga oshirilayotganligi, yashil zonalarning sun`iy ravishda qisqartirilayotganligi kabi holatlar yaqin kelajakda o`z qobatlarini ko`rsatmasdan qolmasligi aniq bo`lib bomoqda.

REFERENCES

1. Adilovna, Q. S. (2021). Features of the Design of Public Buildings in the Organization of Public Services. *湖南大学学报(自然科学版)*, 48(10).
2. Ozadovich, K. A., & Ismailovich, I. B. (2021). Issues of Organization of Service Sets on the Uzbek National Highway A-380. *Design Engineering*, 2582-2586.
3. Inogamov, B. I., & Khasanov, A. O. (2021). Taking Into Account Socio-Functional Factors in the Design of Housing. *Design Engineering*, 2587-2589.
4. Yunusov, S. H., & Qodirova, S. A. (2021). Issues Related to National Forms in the Architecture of Uzbekistan. *Design Engineering*, 10940-10943.
5. Adilovna, Q. S., & Ozodovich, X. A. (2021). REQUIREMENTS FOR THE PREPARATION OF INTERIORS IN SECONDARY SCHOOLS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(11), 74-77.

6. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in Ix-xii Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academica Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
7. Qodirova, S. A., Aripova, N. A., Raximov, L. S., Turebaev, J. O., & Abdusalomov, U. X. (2021). Requirements For The Formation Of The Historical Structure And Internal Environment Of Secondary Schools. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(04), 60-64.
8. Qodirova, S. A., Raximov, L. S., Allayorov, K. O., & Sodiqov, M. M. (2021). Peculiarities Of The Buildings Of The Cultural And Educational Center. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(03), 1-6.
9. Abdujabbarova, M., Nazarenko, T., Begmatova, D., & Tuxtayeva, M. (2021). Industrial Production Of The Republic Of Uzbekistan. *The American Journal of Applied sciences*, 3(11), 39-47.
10. Xushnazarovich, Q. R., Xammatovna, S. M., & Mirkamol o'g'li, S. M. (2021). Traditional Houses and Architecture of Kashkadarya. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 459-463.
11. Khasanov, A. O., & Allayarov, K. O. (2021). Residential Yurts Of The Ancient Nomads Of Central Asia And The Use Of Yurts In Tourism. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(01), 58-64.
12. Adilovna, Q. S. (2021). THE LINK OF CULTURAL AND EDUCATIONAL CENTERS TO THE SOLUTION OF THE PROJECT IDEA. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(11), 92-95.
13. Ozodovich, X. A., Iqramovich, A. R., & Shaxnazarovich, R. L. (2021). Location of auxiliary rooms inside the living rooms in bukhara traditional residential areas.
14. Khasanov, A. (2020). Organizing Eco Tourism Along With Uzbek National Automagistrale Way. *Solid State Technology*, 63(6), 12674-12678.
15. Khasanov, A. (2016). About several infrastructure constructions of the Great Silk Road. *Int'l J Innov Sci Eng Technol*, 3(6), 295-299.
16. Ozodovich, X. A., & Azim o'g'li, N. A. (2021). Formation of the "Obod Mahalla" System in the Villages of Uzbekistan and Serving the Population. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 325-329.
17. Inogamov, B. I., & Khasanov, A. O. (2021). Taking Into Account Socio-Functional Factors in the Design of Housing. *Design Engineering*, 2587-2589.
18. Ozodovich, H. A., & Maribovich, Q. I. (2022). Improving the Design of Youth Innovative-Creative and Development Scientific Centers. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 72-76.
19. TACI, A. K. About Several Infrastructure Constructions Of The Great Silk Road.
20. Mahmudov, O. Z. O., & Kasimov, I. M. (2021). THE STUDY OF THE GEOECOLOGICAL PROBLEMS OF A BIG CITY. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 271-275.
21. Раззаков, С. Ж., Холбоев, З. Х., & Косимов, И. М. (2020). Определение динамических характеристик модели зданий, возведенных из малопрочных материалов.
22. Zokirjon o'g'li, M. O., & Kasimov, I. M. (2021). MODELING OF BUILDINGS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 772-781.

23. Dedakhanov, B., & Kasimov, I. (2022). ANCIENT ARCHITECTURE OF THE FERGHANA VALLEY FEATURES OF FORMATION AND DEVELOPMENT (ON THE EXAMPLE OF CIVIL ARCHITECTURE AND URBAN PLANNING). *Science and innovation*, 1(C6), 278-284.
24. Ravshanovich, A. Z. (2021). Issues Of Improving Tourism Opportunities In Namangan Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 26(2), 40-44.
25. Ozodovich, H. A., & Maribovich, Q. I. (2022). Improving the Design of Youth Innovative-Creative and Development Scientific Centers. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 72-76.